



## ШАХС ИЖТИМОЙ-МАДАНИЙ АДАПТАЦИЯСИ ВА УНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

*Yarmanova Yu.B.*

*Qarshi DU “Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası v.b dotsenti*

**Таянч сўзлар:** шахс, жамоа, ижтимоий, жамият, адаптация, индивидуаллик, бола, индивид, маданий, ижтимоий-маданий адаптация.

**Ключевые слова:** личность, коллектив, социальный, общество, адаптация, индивидуальность, ребёнок, индивид, культурный, социо-культурная адаптация

**Key words:** personality, team, social, society, adaptation, individuality, child, individual, cultural, socio-cultural adaptation.

Bola shaxsini shakllantirishda shaxsiy va jamoaviy muammolar har doim diqqat markazda va juda murakkab bo‘lib, turli xil tarixiy davrlarda o‘ziga xos ma‘no va mazmunga ega bo‘lgan. Bu esa ushbu muammoni hal qilishda ustuvorlik bir tomonga yoki boshqa tomonga qaratilganligi bilan ahamiyat kasb etadi. Bu davrlarda pedagogik tizimlar ularni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ygan yoki “shaxs – jamoa – jamoatchilik” o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirishga intilishgan. Shaxs ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasi ularning “adaptatsiyaga moyilligi” tushunchasiga bog‘liq. Adaptatsiyaga moyillik yoki beriluvchanlik uning tashqi olam ta‘sirilariga javoban o‘z-o‘zini o‘zgartirishga bo‘lgan tayyorlik darajasi bilan belgilanadi. Ya‘ni shaxsning yangi muhit, yangi jamoa va tashqi olamda mavjud yuo‘lgan ijtimoiy-madaniy meyorlarni qabul qila olish va ularga moslashishi bilan belgilanadi. Shaxsning ijtimoiy-madaniy muhit talablari bilan subyektiv ehtiyojlarini uyg‘unlashtirishi o‘zgaruvchan bo‘lib, bu shaxsning indiviudal xususiyatlari, kayfiyati, dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi.

Adaptatsiya tushunchasi ijtimoiy va tabiiy fanlar doirasida keng qo‘llaniladigan tushuncha bo‘lib, tirik organizmlar (yoki ular tarkibiy qismlari) ning ma‘lum bir muhitga, vaziyatga moslashuvini nazarda tutadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da adaptatsiya so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, adaptatio –moslashuv ma‘nosini anglatishi va organizmning atrof-



muhit sharoitlariga moslashishi, ko'nikishi ma'nolarida ishlatilishi qayd etiladi. Umumiy holda adaptatsiya barcha tirik organizmlarning o'zgaruvchan muhitga moslashuvchanligi bilan bog'liq bo'lgan fundamental xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu tushuncha tirik organizmlarning tabiiy, biologik, ijtimoiy xususiyatlari bilan bog'liq holda, tabiiy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik fanlar tizimida keng qo'llaniladi.

Sotsiologiyada «ijtimoiy adaptatsiya» individ va turli ijtimoiy guruhlarining jamiyatga, ijtimoiy va maishiy o'zgarishlarga moslashuvini nazarda tutadi.

Ijtimoiy moslashuv – individning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayoni va bu jarayonning natijasi. Ijtimoiy moslashuv uzluksiz xususiyatga ega ekanligiga qaramasdan, uni, odatda individning o'z faoliyatini va o'zini o'rab turgan ijtimoiy davrasini tubdan o'zgartirish davrlari bilan bog'laydilar. Moslashish jarayonining ijtimoiy muhitga faol ta'sir etish ko'rinishi va muhitdagi maqsad va qadriyatlarni kelishuvchanlik bilan, passiv qabul qilish ko'rinishi bo'ladi. Ijtimoiy moslashish shaxs ijtimoiylashuvining asosiy ijtimoiy-psixologik omillaridan biridir .

Ijtimoiy adaptatsiya jarayoni shaxsning ichki olami, ma'naviyati va ruhiyati bilan bog'liq bo'lib, individual tavsifga ega bo'ladi. Ya'ni ayrim insonlarda ma'lum bir jamoaga tartiblariga moslashish yengilroq kechadigan bo'lsa, ayrimlarda ushbu jarayon bir oz qiyinroq va asta-sekinlik bilan kechadi. Ushbu jarayon bir tomondan shaxsning individual xususiyatlari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan jamoada qabul qilingan meyorlar, tartiblar, munosabatlar va an'analarning shaxs ichki olami va psixologik xususiyatlariga mos kelishi bilan izohlanadi. Fanda ushbu jarayon “shaxsning ijtimoiylashuvi” tushunchasi bilan ifodalanadi. Ya'ni shaxs ma'lum bir jamoada erkin faoliyat yuritish uchun jamoa tartibini qabul qiladi, jamoa hatida faol ishtirok etadi va keyinchalik o'z fikri yoki qadriyatlarini jamoa hayotiga tatbiq eta boshlaydi .

Jamoa yoki jamiyatdagi munosabatlar, an'analar o'ziga xos madaniy meyorlarga asoslanadi. Ushbu nuqtai nazardan shaxsning ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasi tushunchasini izohlash ehtiyojini paydo qiladi. Ijtimoiy-madaniy adaptatsiya shaxsning ma'lum bir jamiyat , jamoa yoki ijtimoiy institutlar madaniy hayoti, qadriyatlari, munosabatlari, meyorlari va an'analarni qabul qilish hamda moslashish jarayoni hisoblanadi. Ijtimoiy-madaniy adaptatsiya mazmuniga shaxsning ma'lum bir jamoadagi mavjud madaniy meyorlari asosida o'z xulq-atvoriga o'zgarish kiritishi yoki jamoa madaniy tizimlar transformatsiyasi bilan bir qatorda yangi madaniy va ijtimoiy munosabatlar tizimining yaratilishi, jamiyat hayotida yangi madaniy, ma'naviy, iqtisodiy o'zgarishlar yuzaga kelishi kabi jarayonlar ham kiradi. Bu jarayonda asosiy vazifani refleksiv jarayon natijasida o'zi va sotsiumni o'zgartirish ehtiyojini



anglagan individ bajaradi. Ijtimoiy-madaniy adaptatsiya shaxs va jamoaning o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro bir-birini taqozo etishi bilan tavsiflanadi. Shaxsning ijtimoiy-madaniy adaptatsiyadagi ishtiroki passiv yoki faolligi bilan farqlanadi. Ya’ni passiv ishtirokchi jamoadagi madaniy muhitga nisbatan ko‘nikma hosil qiladi va madaniy meyorlarni qabul qiladi. Faol ishtirokchi esa jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy meyorlarni o‘zgartirishga va o‘zi yoki ma’lum bir guruh meyorlari, tartiblarini jamoa hayotiga singdirishga harakat qiladi.

Shaxsning ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasi quyidagi o‘zaro bog‘liq va aloqador bo‘lgan bosqichlarda kechadi:

1-bosqich: anglash bosqichi – jamoadagi ijtimoiy-madaniy muhit, meyorlar va ana’analarning shaxs ongida aks etishi hisoblanadi. ya’ni jamoaga yangi kirib kelgan individ jamoadagi mavjud vaziyatni va muhitni o‘rganadi.

2-bosqich: baholash bosqichi – shaxs jamoadagi ijtimoiy-muhitni baholaydi. Baholashda ma’lum bir shaxsiy yoki ijtimoiy mezonlarga moslik darajasi aniqlanadi.

3-bosqich: qiyoslash bosqichi – jamoadagi ijtimoiy-madaniy muhitning shaxsiy madaniy qarashlar va hayotiy rejalarga moslik darajasi aniqlanadi.

4-bosqich: affektiv bosqich – shaxs jamoadagi o‘zi uchun yangi bo‘lgan munosabatlar tizimini qabul qilishda ichki yoki xulqida ifodalanuvchi qarama-qarshiliklarni his etadi va turli affektiv holatlarni tuyishi mumkin. Masalan, jamoada o‘zini noqulay va begona his etishi, diskomfort, kutilgan munosabatlarning mavjud emasligi natijasida tushkunlik, orqaga qaytish, ikkilanish, muloqotdan qochish kabilar.

5-bosqich: reaksiya bosqichi – shaxs jamoadagi mavjud madaniy munosabatlar tizimiga nisbatan o‘z munosabatini va javob reaksiyasini bildiradi. Bu turli ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin: yakkalanishga intilish, muloqotdan o‘zini olib qochish, xotirasining pasayishi, odamovilik, jamoadan chetlashish yoki aksincha, o‘zining kim ekanligini va imkoniyatlarini jamoaga ko‘rsatib quyishga intilish (tashqi qiyofasi, bilimi, kiyinishi, muloqot uslubi, jismoniy kuchi va hokazolar bilan).

6-bosqich: qaror qabul qilish bosqichi – shaxs jamoada qolish yoki qolmasligini, jamoa madaniy meyorlarini qabul qilishi va yoki o‘zgartirishga intilishi, jamoa rahbarini tan olish yoki liderlikka intilishi yuzasidan yakuniy qaror qabul qiladi. Ushbu qaror uning kelajakda jamoadagi ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘rnini belgilab beradi va jamoadagi pozitsiyasini mustahkamlashga, jamoadagi ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy-madaniy adaptatsiyaning yana bir xususiyati shundaki, shaxs jamiyatdagi qadriyatlar tizimini o‘zlashtirib boradi va o‘z navbatida shaxs qadriyatlari tizimi u a’zo bo‘lgan jamiyat tomonidan qabul qilinadi. Ushbu



jarayoni o'z ichiga ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar tizimining o'zaro aloqadorligi va o'zaro ta'sirini qamrab oladi. Ijtimoiy qadriyatlar jamoadagi tartibni belgilash, an'analar asosida o'zaro aloqalarni mustahkamlash, ijtimoiy-madaniy muhitni sog'lomlashtirish va jamoada barqaror muhitni shakllantirishga qaratiladi. U o'z ichiga madaniy meyorlar, an'analar, urf-odatlar, ko'rsatmalar, rahbar organlar nazorati, axborotlarni qabul qilish tizimi kabilarni oladi.

Shaxsiy qadriyatlar tizimiga insonning shaxsiy xarakter xususiyatlari, kundalik odatlari, shaxsiy meyorlar, madaniy saviyasi, qarashlari, shaxsiy ustanovkalari kirib ular ijtimoiy-madaniy adaptatsiya davomida korreksiyalanib boradi. Natijada ijtimoiy va psixologik jihatdan sayqallangan shaxs shakllanadi.

Ijtimoiy-adaptatsiya borasidagi izlanishlarimiz asosida xulosa qilishimiz mumkinki, shaxs jamoadagi ijtimoiy-madaniy meyorlarni qabul qiladi va o'zlashtiradi. Keyingi bosqichda esa u obyekt rolidan faol harakat qiluvchi subyekt roliga o'ta boshlaydi. Ya'ni endi u o'zlashtirgan ijtimoiy-madaniy ko'nikmalari asosida sotsiumda o'z o'rnini egallaydi hamda faol harakatlari asosida ijtimoiy-madaniy hayotga o'z ijodiy ta'sirini o'tkaza boshlaydi. Demak, shaxs ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasi dinamik xarakterga ega va u rivojlanishiga ko'ra jarayondagi rolini o'zgartirib boradi.

#### Adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.1. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. -600 б.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – 704 б.
3. Do'stmuhamedova Sh.A., Nishanova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Sh.T., Alimbayeva Sh.T. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – T., 2010. – B.121-125.
4. Pedagogika fanidan izohli lug'at. P.f.d.professor M.X.Toxtaxodjayevaning tahriri ostida. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – 480 b.
5. Ro'ziyeva D. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. 127 b.
6. Y.Yarmanova. Jamoa munosabatlari asosida amalga oshuvchi ijtimoiy-madaniy adaptatsiya jarayoni. O'zMU XABARLARI. Mirzo Ulug'bek nomidagi o'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. T.:2022. 1/2

#### РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада шахс ижтимоий-маданий адаптацияси ва уни шакллантириш омиллари тўғрисида сўз юритилган.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о социальной и культурной адаптации человека и факторах ее формирования.

#### SUMMARY

This article talks about social and cultural adaptation of a person and the factors of its formation.